

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA TARBIYA FANI ORQALI FAOL FUQOROLIK POZITSIYASINI TARBIYALASHNING DOLZARPLIGI

Chiniboyev Farhod

Sirdaryo tumani politexnikumi Tarbiya fani o'qituvchisi

+99890 153 38 31

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuqori sinif o'quvchilarida tarbiya fani orqali faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalashning dolzarbligi hamda ularning intellektual salohiyatli barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, fuqaro, faol fuqarolik, individual yondashuvli ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liq yondashuvlar, ijtimoiy faol fuqarolik ta'limi fuqarolik burchi, majburiyati va huquqlarni bilish, unga rioya etish, huquqiy munosabatlarda muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish kabi sifatlar orqali erkin demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish yo'lida o'quvchilarning professional kasb egasi bo'lib voyaga yetishi va yuqori sinif o'quvchilarida tarbiya fani orqali faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalashning dolzarpligi yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ijtimoiy faollik, faol fuqarolik, pozitsiya, yetuk, shaxs, jamiyat, demokratiya, huquq, adolat.

O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini qurishga qaratilgan islohatlarning tub mohiyati aholi turmush tarzini yaxshilash, fuqorolarni siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini oshirish, ularda aniq fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalashda o'z ifodasini topadi. Bugungi kunda o'quvchilarni "axloqiy, estetik idealini uyg'unlashtirish, uning ichki tizimini yangicha talqin qilish, zamonaviy faol fuqarolik pozitsiyasiga ega o'quvchilarni tarbiyalash dolzarb umumnazariy masala va bunday ishni amalga oshirish uchun o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalashning takomillashtirish lozim va bugungi kunning ob'ektiv zaruratidir"¹. Shunday ekan ularda doimiy ravishda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga nisbatan ishtiyoq va rag'bat uyg'otish kerak. Buning uchun eng birinchi navbatda o'quvchilarni yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari bilan tanishtirish, aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga e'tibor qaratish, muayyan kasbni mukammal egallash orqali Vatan ravnaqiga hissa qo'shish, jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, insonlarga mehmuruvvat ko'rsatish, saxovatli bo'lishga undash zarur. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev takidlaganidek "Ta'lim sohasining yana bir muhim vazifasi-faol

¹ Самадов А. Шахс эстетик идеалининг шаклланиши ва ривожланиши муаммолари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд: 2020. –Б.5.

fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatan va xalq manfaatlarini qat'iy himoya qila oladigan, zamonaviy, keng fikirlaydigan yoshlar avlodini shakllantirishdan iborat”². O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, globallashuv davri salbiy hodisalari xavfini kamaytirish va o'quvchilarni ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk barkamol avlod qilib tarbiyalash uchun ularda faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash dolzarb va zarur. Vaholanki fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan o'quvchilarimiz jamiyatning asosiy maqsadlari nimadan iboratligini tushunib, xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatini chuqur anglab yetadi.

Faol fuqarolik pozitsiyasi nima degan savolga javob beradigan bo'lsak, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «faol» (arabcha «harakat qiluvchi, ta'sirchan») so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:

- 1) biror g'oyaviy harakat yoki ishga g'ayrat bilan, astoydil kirishadigan, ishchan;
- 2) biror jamoaning ijtimoiy hayoti, faoliyatida astoydil, berilib ishlaydigan, jamoatchi;
- 3) harakatchan, ko'p harakat qiladigan Fuqarolik – fuqaro ekanlik; fuqarolarga oidlik; fuqaroning huquqiy holati degan ma'nolarni beradi.

Pozisiya (lotincha positio – holat, vaziyat):

- 1) har qanday kimsa yoki narsaning tutgan o'rni, ishg'ol qilib turgan joyi, mavqei, holati, vaziyati;
- 2) qo'shinning mudofaa yoki hujum qilish maqsadida egallab turgan va muhandislik nuqtai nazaridan jihozlangan yer maydoni;
- 3) shaxmat va shashka o'yinida donalarning joylashish holati;
- 4) biror masalada tutilgan yo'l, nuqtai nazar; voqea-hodisaning muayyan bahosi degan ma'nolarda keladi³.

Fuqarolik pozitsiyasi deganda o'quvchilarni o'z siyosiy, ijtimoiy huquqlarini anglagan holda faol harakat qilishi tushuniladi. Yuqori sinif o'quvchilarni “Tarbiya” fanni o'qitish orqali faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ularni har tomonlama fidoyi, jamiyatga foyda keltiradigan, ijtimoiysiyosiy vazifalarni bajarishga layoqatli faol o'quvchi va faol fuqoro qilib tarbiyalash nazarda tutiladi. Hozirgi kunda biz faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash dolzarb, mavzulardan biri ekanligini hisobga olgan holda “Tarbiya” fanini o'qitish orqali o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish orqali hayotiy, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishiga ko'maklashishdan iboratdir. Shuningdek, bu jarayonda o'quv-tarbiyaviy faoliyatimizda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalaridan unumli

² Gazeta.uz <https://www.gazeta.uz>

³ Пирназаров Ғ.Н. кадрлар тайёрлаш миллий дастури амалда / национальная программа подготовки кадров в действии замонавий таълим / современное образование 2016, 3

foydalanish, ilg'or ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bilan birga o'z kreativligimizdan foydalanib, yangi usul va vositalarni ishlab chiqish va mahoratli ish tajribalarni ommalashtirish kerak. Shu ma'noda, o'quvchilarda ijtimoiy faollik pozitsiyasini shakllantirishda "Tarbiya" fanni va uning roli hamda ahamiyati xususida to'xtalib o'tar ekanmiz, uning quyidagi jihatlari ahamiyatga molik:

birinchidan, "Tarbiya" fani orqali bilimlar bilan oziqlangan yuqori sinf o'quvchilarda tarbiyaviy-axloqiy dunyoqarash, ijtimoiy faollik pozitsiyasi shakllanadi, ularda olamga, voqea-hodisalarga, atrofini o'rab turgan jamiyat a'zolariga bo'lgan ongli munosabat shakllanadi;

ikkinchidan, Yuqori sinf o'quvchilari "Tarbiya" fanni orqali olgan bilimlar natijasida har qanday muammoli vaziyatlarda ham o'zini o'zi boshqara olish qobiliyati rivojlanib, o'sib boradi;

uchinchidan, "Tarbiya" fanni o'rgatish orqali ularda xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning qoldirgan bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo'lida o'zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan o'quvchilar tarbiyalanadi;

tortinchidan, Yuqori sinif o'quvchilarini o'qitishda "Tarbiya" fani umuminsoniy qadriyatlar shakllanishida ham o'z hissasini qo'sha oladi. Umumta'lim maktablarida o'tiladigan "Tarbiya" fani davlatning talim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni xalq etishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishi, ularning har tomonlama ichtimoiylashuvga ko'maklashishi, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, miliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarini intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga hizmat qiladi.⁴ Yuqori sinif o'quvchilari faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalashda-ularga "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo'yish, mustaqil davlat tuzilmasini hususiyatlari, millatlararo do'stlik tuyg'ulari, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakatlar, mehnat an'analari, milliy istiqlol g'oyasi va mafkura asoslari haqidagi bilimlar berish asosida ularda fuqarolik hissini zimmalaridagi burchi va majburiyatlarini bajarishga nisbatan mas'uliyat, ichtimoiy faollik va fidoyilik, dahildorlik, vatanparvarlik va faol o'quvchi hamda faol fuqarolik sifatlarini o'zida mujassamlashtirishdagi yahlit bir tarbiyaviy jarayon hisoblanadi. Yuqori sinif o'quvchilariga o'tiladigan "Tarbiya" faniga oid dars jarayonlariga faol

⁴ Umumtalim o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun "Tarbiya" fani KONSEPSIYASI. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli qaroriga 3-ilova.

fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni singdirish maqsadga muvofiq bo'lib, bu orqali o'quvchilarda ham "Tarbiya" fanga qiziqishi ortadi va faol fuqarolik pozitsiyasi rivojlanadi. Yuqori sinf o'quvchilari "Tarbiya" fanni orqali faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash dolzarbligining muhim jihati shundaki, ularda nafaqat kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish balki, o'zimizni rivojlantirish, yangi bilimlar olish va ijtimoiy faoliyatga qo'shilishidadir. Agarda yuqori sinf o'quvchilarida tarbiya fanni orqali faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalamas ekanmiz ko'p jabhalarda orqada qolishi va hayoti yomon tarafga o'zgarishiga sababchi bo'lib qolishimiz mumkin. Yuqori sinf o'quvchilar "Tarbiya" fanni o'qib urganishi orqali maktab hayotida o'tkaziladigan turli tadbirlarda, ko'nkurslarda va turli xil ko'rinishdagi maktabning jamiyat ishlarida faol bo'lib borish bilan birgalikda unga yuklatilgan vazifasini masuliyat bilan bajaradi va yakunlaydi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "barchamizning asosiy vazifamiz – yoshlarimizning mustaqil fikri va dunyoqarashi shakllanishiga ko'maklashish, hayotda o'z pozitsiyasi va yondashuvini qat'iy belgilab olishiga yordamlashish, ularni ongli va bilimli qilib tarbiyalash, yon-atrofdagi voqealarga beparvo bo'lmaslik, daxldorlik tuyg'usi bilan yashashga o'rgatishdan iborat".⁵ Demak, har qanday muammo-masalani tarbiyaviy-axloqiy jihatdan tahlil qilishda, shuningdek, bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini baholash va ularga qo'yiladigan talablarni belgilashda yuqoridagilarga alohida e'tibor qaratish zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki o'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash orqali, ularda jamiyatda olib borilayotgan siyosiy islohatlarga bo'lgan munosabati, qarashi va ishtirokini aniqlash mezonlarini takomillashtirish mumkin. O'quvchilarda huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish va ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakilantirish umumta'lim va pofesanal kasib-huna maktablarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil qilish etibor qaratish lozim. Axborot soatlarida faol o'quvchi va faol fuqoro pozitsiyasini tarbiyalashga doir tadbirlar va davra suxbatlarini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari umumta'lim va profesonal kasib hunar-maktablari o'rtasida faol o'quvchi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakilantirish maqsadida turli xil ko'rik-tanlovlar va ma'naviyva ma'rifiy tadbirlarni o'tkazib tushimiz o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Самадов А. Шахс эстетик идеалининг шаклланиши ва ривожланиши муаммолари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд: 2020. –Б.5.

⁵ 1 Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий кадрият. 14-жилд. – Т.: «Ўзбекистон», 2006. -100-б.

2. Gazeta.uz <https://www.gazeta.uz>

3. Пирназаров Ғ.Н. кадрлар тайёрлаш миллий дастури амалда / национальная программа подготовки кадров в действии замонавий таълим / современное образование 2016, 3

4. Umumtalim o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun "Tarbiya" fani KONSEPSIYASI. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli qaroriga 3-ilova.

5. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. 14-жилд. – Т.: «Ўзбекистон», 2006. -100-б.